

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
«O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari»
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.1(575.1)**

SATTAROV ILXOM ACHILOVICH

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDA BUDJET
XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S Y E R T A S I Y A

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
Professor M.B.Kalonov**

Toshkent – 2024

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I BOB.	BUDJET XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	11
1.1-§.	Budjet xarajatlarini optimallashtirishning nazariy asoslari	11
1.2-§.	Budjet xarajatlarining tasniflanishi va samaradorligining nazariy masalalari	21
1.3-§.	Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirishning xorij amaliyoti	36
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar	46
II BOB.	BUDJET MABLAG'LARIDA SAMARALI FOYDALANISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	48
2.1-§.	Budjet xarajatlari samaradorligining amaldagi holati tahlili	48
2.2-§.	O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligida budjet mablag'larining sarflanishining tahlili	63
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	75
III BOB.	BUDJET XARAJATLARINING SAMARADOR-LIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY NAZORAT DASTAKLARIDAN FOYDALANISH	77
3.1-§.	Budjet xarajatlari moliyaviy nazoratining natijaviyligi	7
3.2-§.	Budjet xarajatlari ichki auditi metodikasini takomillashtirish	95
3.3-§.	Budjet xarajatlari samaradorligini baholash va optimallashtirish yo'llari	108
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	119
	XULOSA.....	121
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	124
	ILOVALAR.....	132

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida ko‘plab mamlakatlarda budjet cheklovlari va fiskal bosimlarning ortib bormoqda. Ijtimoiy ahamiyatdagi sarf-xarajatlarning o‘sishi va iqtisodiy tebranishlar hukumatlardan cheklangan resurslar bilan yaxshi natijalarga erishish uchun xarajatlarini optimallashtirishni talab qiladi. “Budjetda xarajatlar taqsimoti dinamik bo‘lishi kerak, chunki iqtisodiy hodisalar dinamikdir. Iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar, inflyatsiya, valyuta kurslari va boshqa omillar iqtisodiy o‘sinh va farovonlikka erishish uchun fiskal siyosatni talab qiladi. Shu munosabat bilan davlat budjetini shakllantirishdagi asosiy muammolardan biri aholi ehtiyojlarini qondirish uchun xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlashga erishishdir”¹. Davlat mablag‘larini taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda mas’uliyatni oshirish imkoniyatlarini aniqlash, budjet ustuvorliklarini siyosat maqsadlariga moslashtirish masalalari sohani mukammalroq o‘rganish zaruratini oshirmoqda.

Xalqaro amaliyotda davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish va optimallashtirish yo‘llari bo‘yicha tadqiqotlar iqtisodiyot, davlat siyosati va davlat boshqaruvi sohalarida muhim tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Tadqiqotchilar istalgan natijalarga erishish uchun davlat xarajatlaridan samarali foydalanishni ta’minlash uchun turli strategiya va vositalarni o‘rganadilar. Xususan, budjetni samarali taqsimlash va xarajatlarni optimallashtirish, baholashni o‘tkazish uchun resurslarning yetishmasligi, islohotdan oldingi ko‘rsatkichlarning yo‘qligi, davlat sektorida samaradorlikni o‘lchashdagi murakkabliklar va aniq institutsional islohotlarning samaradorlikka ta’sirini boshqa tashqi ta’sirlardan ajratib olish muammolari doirasida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va davlat moliyaviy nazorati organlari

¹ David Valle-Cruz a, Vanessa Fernandez-Cortez b, □. Ramon Gil-Garcia. From E-budgiting to smart budgiting: Exploring the potential of artificial intelligence in government decision-making for resource allocation. Government Information Quarterly. Volume 39, Issue 2, April 2022, 101644. <https://doi.org/10.1016/j.giq.2021.101644>

faoliyatini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, “budjet tashkilotlarida budjet mablag‘lari boshqarilishi va budjet hisobi yuritilishini maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida doimiy monitoring qilish, masofaviy nazoratni keng ko‘lamda qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma‘lumotlar bazasi vositasida tekshirish obyektlari va maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda budjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish”² kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish o‘z navbatida budjet xarajatlarini samaradorligini oshirish va mablag‘larning maqsadli ishlatilishining natijaviyligi ta‘minlash, ayrim vazirlik va idoralar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, funksional vazifa va majburiyatlarning samarali bajarilishini ta‘minlovchi me‘yorlardan kelib chiqqan holda boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan sonini belgilash orqali tegishli sohadagi budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, davlat organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir loyihalarni amalga oshirish hisobiga iqtisod qilingan mablag‘larni raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun bevosita mas‘ul xodimlarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish masalalariga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 24-maydagi PF-76-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2022-yil dagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarning samaradorligini yana da oshirish va davlat mo‘ljaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son qarori

“Davlat moliyaviy nazorati tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yana-da oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son “O‘zbekiston Respublikasining «2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi..

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar M.Robinson, David Valle-Cruz a, Vanessa Fernandez-Cortez b, □. Ramon Gil-Garcia, rossiyalik olimlardan O.V.Andreeva, B.I.Satenov, Yu.K.Baranova, Ye.V.Zensova, S.I.Chepurov, Yu.A.Kroxinalarni³ kiritish mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.S.Malikov, N.X.H aydarov, M.Ostanakulov, D.X.Pulatov, M.X.Temirov, T.Sh.Eshnazarov, L.N.Xazratkulova,

³ Marc Robinson. The Role of Evaluation in Spending Review. 2018 Canadian Journal of Program Evaluation / La Revue canadienne d’évaluation de programmes 32.3 (Special Issue / Numéro special), 305–315 doi: 10.3138/cjpe.43177; David Valle-Cruz a, Vanessa Fernandez-Cortez b, □. Ramon Gil-Garcia. From E-budgeting to smart budgeting: Exploring the potential of artificial intelligence in government decision-making for resource allocation. Government Information Quarterly. Volume 39, Issue 2, April 2022, 101644. <https://doi.org/10.1016/j.giq.2021.101644>; Andreeva O.V. Problemy formirovaniya rasxodov budjeta sub’ekta RF v usloviyax ekonomicheskoy nestabilnosti / O. V. Andreeva, M. V. Gerbutova // Nauchno-metodicheskiy elektronnyy jurnal «Konsept». – 2016. – T. 11. – S. 1811–1815; Satenov B. I. Sovershenstvovanie ucheta zatrat i kalkulirovaniya sebestoimosti produkcii na predpriyatiyax // Statistika i uchët. № 3 2015. S. 10–15.; Baranova Yu.K. Gosudarstvennyy finansovy (budjetnyy) kontrol sего dnya // Sotsialno-ekonomicheskie yavleniya i protsessy. 2018. T. 13. № 1; Zensova Ye.V. Konsepsiya povysheniya effektivnosti budjetnyx rasxodov: itogi realizatsii v 2019 godu. Jurnal «Budjet» №5, 2020; Chepurov S.I. Razvitiye principa effektivnosti ispolzovaniya budjetnyx sredstv // Molodoye ucheynye. 2020. № 32. S. 88–89. URL: <https://moluch.ru/archive/322/73052/> (data obramleniya: 01.06.2023); Kroxina Yu.A. Effektivnoe rasxodovanie budjetnyx sredstv: sostoyaniye i perspektivy sovershenstvovaniya pravovogo regulirovaniya.. Ekonomika. Pravo. Obshchestvo № 1 (13), 2018.

A.B.Allakuliev⁴ va boshqa olimlarning ilmiy va o'quv-uslubiy ishlarida o'z aksini topgan.

Ushbu ilmiy ishlarda davlat byujeti xarajatlarining samaradorligini oshirish masalalari to'liq o'rganilmagan. Bugungi kunda davlat byujeti xarajatlarining samaradorligini oshirish va optimallashtirishning ahamiyati yuqori, uning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, xarajatlar prognozini ilmiy jihatdan asoslash va optimallashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish lozim.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish va optimallashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirishning nazariy masalalarini umumlashtirish va zamonaviy tizimini asoslash;

xorij amaliyotini o'rganish asosida budjet xarajatlarining samaradorligini oshirishning yo'nalishlarini aniqlash;

Raqamli texnologiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish va boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan sonini belgilashni asoslash;

⁴ Malikov T.S., Haydarov N.X. Mo'liya: umumiy davlat mo'liyasi. O'quv qo'llanma. T.: «Iqtisodiyot mo'liya», 2009. -556 b.; Ostanakulov M. Bu djet hisobi va tasnifi. □urnali. Ekonomika i finansy. (Uzbekistan). 2010; Pu'latov D.X. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti g'azna ijrosini takomillashtirishning metodologik jihatlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DS) dissertatsiyasi avtoreferati. 08.00.07 – «Mo'liya, pul muomalasi va kredit» Toshkent – 2017;

Temirov M.X. O'zbekiston Respublikasi davlat mo'liyaviy tizimini isloqlashning istiqbolli yo'nalishlari. Avtoreferat. 2019. 12 bet; Eshnazarov T.Sh. Bu djet munosabatlari takomillashtirish va uning istiqbollari. Iqtisodiyot va mo'liya / ekonomika i finansy 2021, 9(145); Allakuliev A.B. O'rta muddatga mo'ljallangan budjet lashtirishni milliy iqtisodiyotga joriy etishning metodologik asoslari. Avtoreferat. 2022. 10 bet; Xazratkulova L.N. O'zbekiston Respublikasi davlat dararo munosabatlari takomillashtirish. Avtoreferat. 2022. 10 bet;

“Davlat auditi” dasturiy kompleksini joriy etish orqali moliyaviy nazorat natijaviyligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish;

samaradorlik auditini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ilmiy amaliy tavsiyalar berish;

budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini yanada oshirish maqsadida dasturiy budjetlashtirish, ya’ni ”Natijadorlikka yo‘naltirilgan budjet” tizimini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi olingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, umumlashtirish, guruhlashtirish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

budjet mablag‘laridan foydalanish natijalarini va rejalashtirish haqiqiylikini nazorat qilishni ta’minlovchi “Natijadorlikka yo‘naltirilgan budjet” dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish orqali budjet xarajatlarini samaradorligini oshirish va mablag‘larning maqsadli ishlatilishining natijaviyligi ta’minlash asoslangan;

Raqamli texnologiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, funksional vazifa va majburiyatlarning samarali bajarilishini ta’minlovchi me’yorlardan kelib chiqqan holda boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan sonini belgilash orqali raqamli texnologiyalar sohasida budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

davlat organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir loyihalarni amalga oshirish hisobiga iqtisod qilingan mablag‘larning 50 foizini kelgusi moliya yilida mazkur davlat organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirish taklifi asoslangan;

ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tashkilotlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish natijasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan loyiha uchun bevosita mas'ul xodimlarni moddiy rag'batlantirish mexanizmini joriy etish bo'yicha taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida "Natijadorlikka yo'naltirilgan budjet" tizimini Raqamli texnologiyalar vazirligi amaliyotda qo'llash taklifi berilgan;

Raqamli texnologiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish va boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni belgilash bo'yicha bergan taklif asosida 65 shtat birligi qisqartirilgan;

davlat organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tashkilotlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish natijasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan loyiha uchun bevosita mas'ul xodimlarni moddiy rag'batlantirish mexanizmini joriy etish asoslangan;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlar sonini oshirish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va

optimallashtirishga oid nazariy-metodologik va moliya tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda mavjud budjet tashkilotlarining budjet mablagʻlari boshqarilishi va budjet hisobi yuritilishini takomillashtirish, xarajatlari samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni takomillashtirish, budjet tashkilotlarini tekshirishga oid qonunchiligi va meʼyoriy-hujjatlarini ishlab chiqishda, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada faoliyat koʻrsatayotgan budjet tashkilotlarida budjet mablagʻlarini maqsadli sarflanishi, xarajatlarni optimallashtirish va uning nazoratini amalga oshirishga doir darsliklar, oʻquv va uslubiy qoʻllanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar sohasida budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish boʻyicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

budjet mablagʻlaridan foydalanish natijalarini va rejalashtirish haqiqiylikini nazorat qilishni taʼminlovchi “Natijadorlikka yoʻnaltirilgan budjet” dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish orqali budjet xarajatlarini samaradorligini oshirish va mablagʻlarning maqsadli ishlatilishining natijaviyligi taʼminlash taklifi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining “2023-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni ijrosini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2022 yil 30 dekabrda PQ–471-son qarori bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetining barqarorligini taʼminlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi”da oʻz aksini topgan (Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 21 sentyabrdagi 15-8/6440-son dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida “Natijadorlikka yoʻnaltirilgan budjet” tizimini joriy etilishi budjet xarajatlarini samaradorligini oshirish va mablagʻlarni maqsadli ishlatilishining natijaviyligi taʼminlash imkoni yaratilgan;

Raqamli texnologiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, funksional vazifa va majburiyatlarning samarali bajarilishini ta'minlovchi me'yorlardan kelib chiqqan holda boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan sonini belgilash orqali raqamli texnologiyalar sohasida budget xarajatlarining samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi PF-14-son "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 21 sentyabrdagi 15-8/6440-son dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 2023 yil 1 yanvar holatiga 238 shtat birligi bo'lgan bo'lsa, 2023 yil 1 fevraldan 173 shtat birligidagi xodimlarning faoliyat yuritishi, ya'ni 65 shtat birligini qisqartirish imkoni yaratilgan;

davlat organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir loyihalarni amalga oshirish hisobiga iqtisod qilingan mablag'larning 50 foizini kelgusi moliya yilida mazkur davlat organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 avgustdagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 21 sentyabrdagi 15-8/6440-son dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida o'tkazilgan ichki audit natijalarini "Davlat auditi" dasturiy kompleksida aks ettirib borish va auditning natijaviyligi nazorat qilish imkoni yaratilgan;

ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tashkilotlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish natijasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan loyiha uchun bevosita mas'ul xodimlarni moddiy rag'batlantirish mexanizmini joriy etish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 maydagi PF-76-son "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida o'z